

“TASDIQLAYMAN”

“O‘zavtosanoat” AJ

Boshqaruv raisi



U. Rozukulov

2025-yil “___” may

**“O‘zavtosanoat” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga
bag‘ishlangan iqtisodiy o‘qishning yig‘ilish
BAYONI**

2025-yil 14-may

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

“O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi
birinchi o‘rinbosari B.Raxmonov

Qatnashdilar:

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga
qarshi kurashish agentligi mas‘ul xodimi
M.Rasulov

“O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi
o‘rinbosari A.Saxapov, Komplayens xizmati
rahbari A.Odilov hamda Jamiyat va uning
tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan
rahbar va xodimlar

Umumiy ishtirokchilar soni 97 nafar.

Kun tartibi:

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 15-apreldagi
iqtisodiy o‘qishlar o‘tkazish haqidagi topshirig‘i ijrosi bo‘yicha o‘qitish**

(B.Raxmonov, M.Rasulov, A.Odilov, B.Raxmonov)

Kirish so‘zini “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosari B.Raxmonov ochib, quyidagilarni bildirdi.

Hozirda mamlakatimizda Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, ayniqsa so‘ngi yillarda, dolzarb sohaga aylanib, davlat siyosati va dasturlarida aks ettirib kelinmoqda. 2017-yil yanvar oyida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligini, bu sohada kompaniya va uning tizimiga kiruvchi

korxonalar ham korrupsiyaga murosasizlik prinsipi asosida faoliyatini tashkil etib, bu boradagi ishlar asosiy vazifalardan biriga aylangan.

Tizimda ushbu vazifani komplayens xizmati olib bormoqda. Komplayens xizmatining asosiy vazifasi — korrupsiya holatlarini erta aniqlash, ularga imkon beradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishdir.

Yurtboshimiz tomonidan ham keyingi paytlarda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish sohasi ham alohida nazoratga olindi.

Bunga, Prezidentimizning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashning joriy yilning 5-mart sanasida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida bergan vazifalari, Prezidentning 2025-yilning 21-aprelidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son Farmoni hamda "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-son Qarori qabul qilinganligi yaqqol misoldir.

Bu borada to'liq ma'lumot berish uchun so'zni Komplayens xizmati rahbari A.Odilovga berdi.

Komplayens xizmati rahbari A.Odilov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashning joriy yilning 5-mart sanasida o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida bir qator muhim vazifalar belgilab berilganligini ta'kidlab o'tdi.

Unga ko'ra, Korrupsiya islohotlarga to'siq ekani davlat va jamiyat ishonchini yo'qotadigan, iqtisodiyotga yillik 3 trln dollar zarar keltiradigan global xavf sifatida baholandi.

Ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik nazorati orqali ochiqlik ta'minlanishi, ochiqlik siyosatini, so'z erkinligi g'oyalarini hayotga tatbiq etishda hamisha qat'iy bo'lishga alohida urg'u berdi.

Xalqaro ochiqlik reytinglarida O'zbekiston 138 pog'onaga ko'tarilganini qayd etdi.

Korrupsiyaga sabab bo'lgan sohalarda raqamlashtirish va islohotlar amalga oshirilgani, bunda yer berish, qurilish, ta'lim, bank xizmatlari, davlat xaridlari, YHXB, maktab va bog'chaga joylash kabi sohalar raqamlashtirilgani, natijada minglab byurokratik to'siqlar bartaraf etildi, milliardlab mablag' tejalganini ko'rsatib o'tildi.

Vazirliklarning hududiy komplayens xodimlarini bevosita vazirni o'zi ishga qo'yishi, o'ziga siyosiy mas'uliyat olib, butun tizimidagi korrupsiya uchun shaxsan javob berishi belgilandi.

Ikki oyda xalqaro reyting tashkilotlari tavsiyasi asosida "yo'l xarita"si ishlab chiqilib, har bir vazirlik va idoraga qilinadigan ishlar aniq belgilab beriladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korrupsiya shaklida sodir etilayotgani qayd etildi. Masalan, infratuzilmaga ulanish, litsenziya olish, imtiyozli kredit ajratish, ishga qabul qilish, malaka oshirish kabi yo'nalishlarda korrupsiya omillari ko'pligi qayd etildi.

Manfaatlar to'qnashuvi, qimmat narxda tovar sotib olish yoki xizmat ko'rsatish asosan davlat xaridlarida kuzatilayotgani ko'rsatib o'tildi.

Yirik loyihalarni yuqori darajadagi korrupsiyaga qarshi standartlardan kelib chiqib baholash lozimligi ta'kidlandi

Ishga qabul qilishni ochiq va shaffof o'tkazish, davlat xizmatchilari reyestrini belgilash, kadrlarni korrupsiyaga moyilligini o'rganish bo'yicha farmon loyihasini kiritish topshirildi.

Bundan tashqari, Davlat xizmatchilarning mol-mulki va daromadlari deklaratsiya qilinishi to'g'risida qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga kiritilishi, noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlik nazorat qilinishi bo'yicha topshiriqlarning mazmun mohiyati ishtirokchilarga yetkazildi.

Shundan so'ng Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakili M.Rasulov tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilning 21-aprelidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son Farmoni hamda "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147-son Qarori mazmun-mohiyatini tushuntirib berdi.

Jumladan, Qaror bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalarining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish;

- davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, raqamlashtirish, byurokreatiyani qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik choralarini ko'rish, davlat xaridlari bo'yicha preventiv o'rganishlarni amalga oshirish;

- mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalari bevosita tashkilotning birinchi rahbariga, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida esa kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va uning oldida hisobdor bo'ladi;

- Tuzilmaning barcha darajadagi rahbar va xodimlari respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbarlari tomonidan tayinlanadi;

- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi taqdimnomalarini ular faoliyat olib borayotgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqilishi majburiy hisoblanadi.

Shundan so'ng Jamiyat boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari B.Raxmonov, Komplayens xizmati rahbari A.Odilov hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakili M.Rasulov tomonidan Jamiyat va uning tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan rahbar va xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishga yo'naltirilgan

ma'lumotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yurtimizda va Jamiyatda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlarning mohiyati haqida ham tushuntirishlar berilib, taqdimotlar o'tkazildi.

"O'zavtosanoat" AJda Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, xususan Komplayens tizimi samarali yo'lga qo'yilganligi, ochiqlik va shaffoflik hamda xodimlarni bilimlarini tizimli oshirilishi natijasida "O'zavtosanoat" AJ o'tgan yil yakunlariga ko'ra Ochiqlik indeksida 89.30 ball bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reytingida 86 ball bilan yuqori natijaga erishgani e'tirof etilib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakili tomonidan ushbu samaradorlik davomiy bo'lishiga umid bildirgan holda o'z takliflarini bildirib o'tdi.

Shundan kelib chiqib, o'qish yakuni bo'yicha

1. Iqtisodiy o'qishning ma'ruzachilari tomonidan taqdimot materiallari ma'lumot va ish faoliyatida foydalanish uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyat va uning tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens siyosatlari borasida bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha shu kabi o'quv-seminarlar doimiy ravishda tashkil etilsin.

Bayonlashtiruvchi



Sh.Sidiqov

“O‘zavtosanoat” AJning 2025-yil “ ” dagi
 - son bayoniga kelishuv varaqasi

Kiritildi:	M.N.Xakimov 			
Kelishildi:	Rahbarning familiya, ismi va sharifi	Loyihani qabul qilib olgan sanasi	Loyihani kelishilgan sanasi	Rahbarning imzosi
	B.S.Rahmonov			
	S.I.Gafarov			
	M.A.Zohidov			
Yuborildi:	Jamiyatning barcha tarkibiy bo‘linmalariga.			





